KELISHILDI
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri v.v.b
_____A.S.Kurbanbayev
2023-yil «16» oktabr

TASDIQLAYMAN
O‘zbekiston Respublikasi
Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri
_____B.I.Zakirov
2023-yil «16» oktabr

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiining NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik deb ataladi) asosiy vazifalari, funkciyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. Vazirlik hududda shaharsozlik va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida boshqarish organlarining yagona tizimidagi hududiy bo‘g‘in hisoblanadi, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga bo‘ysunadi hamda tegishliligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga hisobot beradi.

3. Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining buyruqlari va qarorlariga amal qiladi.

4. Vazirlik o‘z vazifalari va funktsiyalarini amalga oshirishda Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hududiy bo‘linmalari, mahalliy Davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

5. Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri va tegishliligа ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat gerbi tushirilgan va o‘z nomi tushirilgan muhr va blankalarga, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi G‘aznachilik boshqarmalarida hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

6. Vazirlikning joylashgan joyi (pochta manzili) Nukus shahri, G‘arezsizlik ko‘chasi 59a-uy, indeks 230100.

2-bob. Vazirlikning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) shaharsozlik faoliyati sohasidagi vazifalari:

Vazirlik zimmasiga yuklangan vazifalarni tegishli hududda samarali bajarish;

aholi punktlarining bosh rejalariga rioya etilishi ustidan monitoring va davlat arxitektura nazoratini amalga oshirish;

o‘z vakolatlari doirasida aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishda va tasdiqlashni tashkil qilishda ishtirok etish;

shaharsozlik faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni tayyorlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini tayyorlashda ishtirok etish;

tegishli hududlarda shaharsozlik faoliyati ob’ektlarini joylashtirish hamda muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha takliflar kiritish;

yuqori samarali va energiyani tejaydigan loyiha echimlari va qurilish materiallarini, zamonaviy qurilish texnologiyalari va innovaciya loyihalarini tatbiq etishda ko‘maklashish;

shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiquvchilar va mutaxassislarning malakasini doimiy ravishda oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil qilishda ishtirok etish;

tegishlicha shaharlar va tumanlar hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshqaradigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sektorlari (keyingi o‘rinlarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sektorlari deb ataladi) bilan hamkorlik qilish;

shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, hududdagi qurilish tashkilotlarini yuqori malakali quruvchilar, loyihachilar va boshqa mutaxassislar bilan ta’minlashni tashkil qilishda ishtirok etish. O‘z vakolati doirasida davlat xizmatlari ko‘rsatish.

b) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi vazifalari:

Vazirlik uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini hudud miqiyosida tadbiq etish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

ko‘p kvartirali uylarni boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ko‘p kvartirali uylarni texnik holatini monitoring qilish;

ko‘p xonadonli uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash ishlarini tashkil etishda ishtirok etish;

ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash, ulardan foydalanish va umumiy mulkni saqlashga qaratilgan majburiy badallar miqdorini aniqlash yuzasidan boshqaruv organlariga uslubiy ko‘maklashish;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish obyektlarini, issiqlik ta'minoti tizimlarini aholi punktlarini bosh rejalari va boshqa shaharsozlik hujjatlari bilan bog'lagan holda modernizaciya va rekonstrukciya qilish dasturlarini ishlab chiqilishida ishtirok etadi va amalga oshirilishini monitoring qilish;

aholi punktlarini ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlash uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish;

issiqlik ta'minoti tizimida, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib, energiya va resursni tejaydigan yangi texnologiya va uskunalarni joriy qilish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

markaziy qozonxonalarni, issiqlik tarmoqlarini modernizaciya va rekonstrukciya qilish borasida issiqlik ta'minotini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida normativ-xuquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

issiqlik ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga tarif siyosatini shakllantirish hamda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

qonun hujjatlariga muvofiq yuqori tashkilotlar nomenklaturasiga olingan lavozimlarga malakali nomzod kadrlar tanlash va belgilangan tartibda taqdim qilish;

uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasining hududdagi tashkilotlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirish bo'yicha ehtiyojni o'rganish va takliflar kiritish;

uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasining hududiy tashkilotlari kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga jalb qilish;

Vazirlik va uning tashkiliy tuzilmasidagi korxona va tashkilotlarda axborot-kommunikaciya texnologiyalari faoliyatini yo'lga qo'yish va barqarorligini ta'minlash;

Vazirlik va uning tashkiliy tuzilmasidagi korxona va tashkilotlarda balans va moliyaviy hisobotlarni qabul qilish, tahlil qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga taqdim qilish.

8. Vazirlikka yuklangan asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funkciyalarni amalga oshiradi:

a) shaharsozlik faoliyati sohasidagi funkciyalari:

kelishilgan loyiha hujjatlarining fasad, kichik arxitektura shakllari va boshqa arxitekturaviy echimlaridan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan chekinish sodir etilganda mazkur holatlarga nisbatan chora ko'rish uchun to'plangan materiallarni O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Bosh rejalarga rioya etilishi ustidan davlat arxitektura nazorati bo'limiga, mahalliy hokimiyat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etib boradi;

qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish komissiyalari ishida ishtirok etadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududini rejalashtirish sxemalarini, tumanlarni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalarini, umumdavlat va mahalliy ahamiyatga molik alohida tartibga solinadigan shaharsozlik faoliyati obyektlarining shaharsozlik hujjatlari, aholi punktlarining bosh rejalari, batafsil rejalashtirish loyihalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishida ishtirok etadi;

maqsadli dasturlarga kiritilgan qurilish obyektlarining loyiha topshiriqlarini kelishadi;

obyektlarning joylashuvi bo'yicha qurilish chizig'ini belgilaydi;

umumdavlat va mahalliy ahamiyatga molik alohida tartibga solinadigan shaharsozlik faoliyati obyektlari uchun chegaralar belgilash haqida takliflar kiritadi;

bosh rejalar mavjud bo'lmagan hududlarda hamda bosh reja ishlab chiqilayotgan davrda, shuningdek batafsil rejalashtirish loyihalarida, master rejalarda nazarda tutilmagan obyektlar joylashtirilishini hududiy shaharsozlik kengashlarida ko'rib chiqadi va kelishadi;

tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida shaharsozlik faoliyati obyektlari, bino-inshootlar, muhandislik va transport infratuzilmasi obyektlari qurilishini yoki rekonstrukciyasini, shuningdek, hududlarni obodonlashtirishni loyihalashtirish uchun arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqadi;

shaharsozlik hujjatlarining amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib boradi;

davlat shaharsozlik kadastri yuritilishida ishtirok etadi;

loyiha hujjatlarining arxitektura qismini saqlashga doir elektron arxivni yuritadi;

shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududiy maqsadli dasturlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining shaharsozlik bo'limlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda qatnashadi;

aholini shaharsozlik faoliyati to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib boradi;

texnik jihatdan tartibga solishga oid normativlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida hududlardagi erlardan samarali foydalanish, shuningdek, tegishli hududda muhandislik, transport va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritadi;

shaharsozlik faoliyati obyektlarini joylashtirish hamda shahar, shaharcha va qishloq (ovul)ning chegaralarini belgilash to'g'risida takliflar kiritadi;

yuqori samarali va energiyani tejaydigan loyiha echimlari, qurilish materiallarini, zamonaviy qurilish texnologiyalari va innovacion loyihalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etadi;

tegishli hududdagi shaharsozlik faoliyati obyektlari bo‘yicha loyihalashtirish ishlarini va kompleks muhandislik qidiruvlarini, shuningdek, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiquvchilarning mualliflik nazoratini muvofiqlashtirib boradi;

Vazirlik huzuridagi hududiy Arxitektura-shaharsozlik kengashi faoliyatini tashkil etadi;

binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning loyihalari tasdiqlanishiga rozilik beradi yoki asoslantirgan holda rad etadi;

qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va pudrat ishlari bozorini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga kiritadi;

qurilish industriyasi korxonalari va investiciya faoliyatining boshqa qatnashchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini, shuningdek, qurilish materiallari, konstrukciyalari va buyumlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning axborot bazasini shakllantirishda ishtirok etadi;

sohaga kirib kelayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalarni inobatga olgan holda qisqa muddatli malaka oshirish kurslarining dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda ishtirok etadi;

sohaga oid faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni malakasini oshirish va sertifikatlash choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar kiritadi;

nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida hududlarda amalga oshirilayotgan qurilish ob’ektlarida sayyor mashg‘ulotlar tashkil etishda ko‘maklashadi;

soha mutaxassislarining ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tash bazasi sifatida ularni loyiha va pudrat tashkilotlariga joylashtirishga ko‘maklashadi;

arxitektura va qurilish sohasining rivojlanishi holati monitoringini olib boradi, hududda kelajakda ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha prognozlarni shakllantiradi;

vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hududiy bo‘linmalarining arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi;

arxitektura va qurilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta’minlaydi;

arxitektura va qurilish sohasida o‘zini ko‘rsatgan xodimlarni, shuningdek, arxitektura va qurilishni rivojlantirishga ko‘maklashgan boshqa shaxslarni idoraviy ko‘krak nishonlari bilan mukofotlash haqida taklif tayyorlaydi va belgilangan tartibda taqdim etadi;

b) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi funkciyalari:

jismoniy va yuridik shaxslarning uy-joy kommunal xizmatlariga bo‘lgan talabini o‘rganadi va o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga taqdim qiladi;

uy-joy kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifat darajasini oshirish va energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan takliflar kiritadi;

ko‘p xonadonli uy-joy fondi, ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish, issiqlik ta’minoti sohasida qurilish, rekonstrukciya va modernizaciya qilishga doir dasturlar, shuningdek hududning kommunal infratuzilmasini yanada rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ijrosi yuzasidan monitorng olib borish;

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimiga rahbarlik qiladi, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish obyektlaridan foydalanadigan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ko‘p xonadonli uy-joy fondi, issiqlik ta’minoti tizimlarining texnik-iqtisodiy holati ko‘rsatkichlarini o‘rganadi va monitoring qiladi;

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ularning turlarini kengaytirish, ishlab chiqarishning moddiy va energiya iste’molini kamaytirish choralarini ko‘radi va bu sohani takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

mahalliy ijro hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlarining ko‘p xonadonli uylarning saqlanishini ta’minlash, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish obyektlarining barqaror ishlashi masalalari yuzasidan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yadi;

hudud aholisini uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining faoliyati to‘g‘risida muntazam xabardor qiladi, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning Vazirlik vakolatiga kiritilgan masalalarga taalluqli murojaatlarini (takliflari, arizalari va shikoyatlarini) qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi va zarur choralar ko‘radi;

ko‘p xonadonli uy-joy fondini ta’mirlash, obodonlashtirish va undan foydalanish ko‘p xonadonli uylarni boshqarish va boshqaruvni amalga oshiradigan tashkilotlarni nazorat qilish tizimining faoliyat ko‘rsatishi, uy-joy munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari to‘g‘risida aholini axborot bilan ta’minlaydi;

ko‘p xonadonli uy-joy fondining turar joylarini yashash uchun yaroqsiz deb tan olish tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirishda ishtirok etadi;

ko‘p xonadonli uy-joy fondining avariya holati monitoringini olib boradi;

favqulodda holatlarning oldini olish va ko‘p kvartirali uylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning hayoti xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududidagi eskirib qolgan ko‘p qavatli uylar o‘rnida bosqichma-bosqich yangi uy-joylar qurish bo‘yicha renovaciya dasturlarini ishlab chiqishda takliflar ishlab chiqish;

renovaciya dasturi doirasida har bir ko‘p kvartirali uy-joylar kesimda uylarni texnik holatidan kelib chiqib, ularning elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilab borish;

ko‘p kvartirali uy-joylarni yillar kesimida zilzilabardoshlik bo‘yicha xatlovdan o‘tkazishni tashkillashtirish;

ko‘p xonadonli uy-joy fondini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash borasida ishlarni tashkil qiladi va mahalliy ijro hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

boshqarish organlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlanishini tashkillashtirish va monitoring qilish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, namunaviy mashg‘ulotlar va seminarlarni tashkillashtirish;

ko‘p kvartirali uy-joy fondini saqlash bo‘yicha tasdiqlangan badallarning miqdorini, harajatlar va daromadlarni, boshqaruv organi xodimlarining ish haqilarini, fondlarni va boshqalarni hisobga olib, belgilangan tartibda boshqaruv organlarining moliyaviy-iqtisodiy holatini monitoring va tahlil qilish;

ko‘p kvartirali uylar bo‘yicha majburiy badallardan tushayotgan mablag‘larning shaffofligini ta’minlash maqsadida ularni “Mening uyim” billing tizimi bilan to‘liq qamrab olinishida boshqaruv organlariga amaliy yordam berish;

“Mening uyim” billing tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun “Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi va boshqa elektron axborot tizimlari bilan uzluksiz birgalikda ishlashni ta’minlashda ishtirok etish;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini rivojlantirish va modernizaciya qilishda, ayniqsa, qishloq joylarida toza ichimlik suvdan foydalanishini yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning bozor tamoyillariga mos mexanizmlarini joriy etilishini ta’minlashda ishtirok etadi;

davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida bajariladigan qurilish va rekonstrukciya ishlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashda ishtirok etadi;

markazlashtirilgan ichimlik suv ta’minoti tarmog‘iga ulangan barcha toifadagi iste’molchilar uchun zamonaviy hisobga olish priborlarini bosqichma-bosqich o‘rnatish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirilishida ishtirok etadi;

issiqlik ta’minoti tizimida, jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib, energiya va resursni tejaydigan yangi texnologiya va uskunalarni joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

obyektlarda energiya samaradorligini ta’minlaydigan mahalliy qozonxonalar qurish, shuningdek xonadonlar ichida alohida issiqlik ta’minoti tizimlarini o‘rnatish orqali markazlashtirilmagan issiqlik ta’minoti tizimini rivojlantirish choralarini ko‘radi;

jismonan va ma’nan eskirgan, samaradorligi past qozonxona agregatlari, nasos uskunalari, ishdan chiqqan magistral va taqsimlash issiqlik tarmoqlarini modernizaciya, rekonstrukciya qilinishini hamda ularni almashtirilishida qatnashadi;

energiya resurslarini ishlab chiqarish va iste’mol qilishni normativ hisobga olishni yo‘lga qo‘yish, abonentlarni issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun kelib tushadigan mablag‘lar va to‘lovlarni avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimini joriy qilinishini tashkil etadi;

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ehtiyojni o‘rganadi, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlashni, xorijiy mamlakatlarda tajriba orttirish uchun nomzodlarni jalb qilish ishlarini tashkil qiladi;

tegishli davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorlikda Vazirlik va uning tashkiliy tuzilmasidagi korxona va tashkilotlarda korrupciyani oldini olishga qaratilgan ishlarni tashkillashtiradi;

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funkciyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlarining vazifalari va funkciyalari

9. Quyidagilar tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) shaharsozlik faoliyati sohasida:

tegishli tumanda (shaharda) Vazirlik zimmasiga yuklangan vazifalar va funkciyalarni samarali bajarish;

o‘zlariga yuklatilgan vazifalar bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish hamda tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilishda ishtirok etish;

tuman hududini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining bosh rejalarini hamda boshqa shaharsozlik hujjatlarining ishlab chiqilishini va tasdiqlanishida ishtirok etish;

o‘z vakolatlari doirasida shaharsozlik hujjatlarini amaliyotga tatbiq etish monitoringini olib borish;

hududda bosh rejalar mavjud bo‘lmagan hamda bosh reja ishlab chiqilayotgan davrda, shuningdek batafsil rejalashtirish loyihalarida, master rejalarda nazarda tutilmagan obyektlar joylashtirilishini hududiy shaharsozlik kengashlariga kiritadi;

shaharsozlik faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar tayyorlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda qatnashish;

shaharsozlik faoliyati obyektlarini joylashtirish, shuningdek, tegishli hududda muhandislik, transport va infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritish;

shaharsozlik faoliyati sohasida yuqori samarali va energiyani tejaydigan loyiha echimlari va qurilish materiallarini, zamonaviy qurilish texnologiyalari va innovaciya loyihalarini tatbiq etishda ishtirok etish;

loyihalashtirish va pudrat ishlari, qurilish materiallari bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha takliflar kiritish;

tumanda (shaharda) arxitektura va qurilishni rivojlantirish holati monitoringini olib borish, tumanda (shaharda) ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha har yilgi prognozlarni shakllantirish.

b) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida:

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash hamda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etishda ko‘maklashish;

ko‘p kvartirali uylarning hisobini yuritish, uylarning texnik holatini monitoring qilish;

ko‘p xonadonli uylarni qurish bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirilishida ishtirok etish, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkil etish;

mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash va rekonstrukciya qilish bo‘yicha dasturlarni shakllantirish;

ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

vazirlik tomonidan berilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash, bajarilishi yuzasidan vazirlikka hisobotlar kiritish;

issiqlik ta’minoti tizimlarini aholi punktlarini bosh rejalari bilan bog‘lagan holda rivojlantirish, modernizaciya va rekonstrukciya qilish dasturlarini ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning sifatli bajarilishini tashkillashtirish, shuningdek tuman (shahar)dagi mazkur soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida barcha dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan qurilish, rekonstrukciya va modernizaciya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

10. Tuman (shahar) Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari ularga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funkciyalarni amalga oshiradi:

a) shaharsozlik faoliyati sohasida:

tumanda (shaharda) arxitektura va qurilishning rivojlanish holati monitoringini olib boradi, tumanda (shaharda) ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha har yilgi prognozlarni shakllantiradi;

aholi punktlarining bosh rejalarga asosan kompleks qurilish, loyiha va qurilish-montaj ishlarini bajarishda shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikka, shaharsozlik norma va qoidalariga, davlat standartlariga rioya etilishi yuzasidan nazorat amalga oshirilishida ishtirok etadi;

er maydonlarini aukcionga chiqarilishida ishtirok etadi;

o‘z vakolatlari doirasida davlat xizmatlarini ko‘rsatadi;

belgilangan tartibda obyektlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha takliflar kiritadi;

shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini ko‘rish uchun materiallarni vakolatli organlarga taqdim etadi;

aholi punktlarini shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash bo‘yicha takliflar kiritadi;

bosh rejalar, batafsil rejalashtirish loyihalari va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududlarda shaharsozlik faoliyati obyektlarini joylashtirish va muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Vazirlik va mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflarni kiritadi;

shaharsozlik hujjatlarining amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib boradi;

Vazirlikga davlat shaharsozlik kadastrini yuritish yuzasidan ma’lumotlarni kiritadi;

yer ajratish va imorat qurishga oid, shuningdek, muhandislik kommunikaciyalari joylashishi navbatchi rejalarini yuritadi;

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha hududiy dasturlar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining shaharsozlik bo‘limlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda qatnashadi;

tegishli hududni rivojlantirish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun boshlang‘ich ma’lumotlarni jamlashda ko‘maklashadi va bevosita ishtirok etadi;

yuqori samarali va energiyani tejaydigan loyiha echimlarini, qurilish materiallarini, zamonaviy qurilish texnologiyalari va innovacion loyihalarni tatbiq etishda ishtirok etadi;

b) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida:

ko‘p kvartirali uylarni saqlash va undan foydalanish bilan bog‘liq belgilangan vazifalar va ishlab chiqilgan Dasturlar ijrosini bajarilishini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylarning texnik pasportlari asosida uylarning soni, ularning texnik holati va ushbu uylarga xizmat ko‘rsatuvchi boshqarish tashkilotlari yuzasidan to‘liq ma’lumot-hisobotlarni yuritadi;

ko‘p kvartirali uylarning texnik holati bo‘yicha xatlov ishlarini o‘tkazadi, bu borada ishlab chiqilgan statistik hisobotlar, nuqson dalolatnomalari va shu kabi boshqa xujjatlarni amaliyotga to‘liq tatbiq etilishini ta’minlaydi;

uylarning texnik holati va kelgusida ta’mirlash zaruriyati yuzasidan manzilli dastur bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

renovaciya dasturi doirasida har bir ko‘p kvartirali uy-joylar kesimda uylarni texnik holatidan kelib chiqib, ularning elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish va doimiy ravishda yangilab borishda ishtirok etadi;

favqulodda holatlarning oldini olish va ko‘p kvartirali uylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning hayoti xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududidagi eskirib qolgan ko‘p qavatli uylar o‘rnida bosqichma-bosqich yangi uy-joylar qurish bo‘yicha renovaciya dasturlarini ishlab chiqishda takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ko‘p kvartirali uy-joylarni yillar kesimida zilzilabardoshlik bo‘yicha xatlovdan o‘tkazishni tashkillashtirishda ishtirok etadi;

o‘tkazilgan texnik xatlov natijalari bo‘yicha tegishli hududda joylashgan ko‘p kvartirali uylarning tasdiqlangan texnik me’yorlarga muvofiq yaxshi, o‘rta va og‘ir toifaga bo‘linishi hamda ularning ro‘yxatini shakllantiradi;

boshqaruv organlariga biriktirilmagan uylarning ro‘yxatini tuzadi, ularda boshqaruv organlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari xamda boshqa nodavlat yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan hududlardagi uyning aniq hisobini yuritadi va uylarning texnik holatidagi muammolar hamda uning echimlari yuzasidan shu mutasaddi idoralarga tegishli takliflar tayyorlaydi;

uylarni kapital ta’mirlash, sanaciya, rekonstrukciya yoki renovaciya qilish yoxud buzish, ushbu uylarda yashayotgan mulkdorlarni ko‘chirish yoki ularni boshqa uy-joylar bilan ta’minlashning qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan kompleks reja-dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ko‘p kvartirali uylarning turar joy binolarini yashash uchun yaroqsiz deb tan olish tadbirlarini o‘z vakolati doirasida belgilangan tartibda amalga oshiradi, bunda, vakolatli organlar bilan birgalikda eski va avariya holatida deb topilgan ko‘p kvartirali uylarning kapital ta’mirlash, rekonstrukciya qilish va buzish ishlarini tashkil etadi;

har yil dekabr oyida texnik jihatdan “o‘rta (sariq)” va “og‘ir (qizil)” toifadagi ko‘p kvartirali uylar bo‘yicha kelgusi yilda amalga oshiriladigan kompleks ishlar bo‘yicha boshqarmaga takliflar tayyorlaydi;

lift xavfsizligini ta’minlashga mas’ul deb topilgan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan birgalikda ko‘p kvartirali uylarda o‘rnatilgan liftlarning texnik xavfsizligini ta’minlashdagi muammolarning bartaraf etishni kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va bu borada bo‘lim vakolatiga kiruvchi vazifalar bo‘yicha ijrosini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylarning joylashuvi xaritasini ishlab chiqish va uni mahalliy hokimliklar qarorlari bilan tasdiqlash hamda uni amaliyotga joriy etishga oid masalalar bo‘yicha vakolati doirasidagi ishlarni amalga oshiradi;

ko‘p kvartirali uylar va unga tutash hududlarning aniq chegaralarini belgilash va ushbu ishlarga oid ishlab chiqilgan hujjatlarni shahar hokimligi qarorlari bilan tasdiqlash, ushbu qarorlarni boshqaruv organlariga tarqatish va amalga oshirilayotgan ishlarning maqsadi yuzasidan keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish bilan bog‘liq bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylarni elektron pasportlashtirishga oid bo‘lim vakolatiga kiruvchi ishlarni tashkil etadi, tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda elektron

pasportlashtirish bilan bog‘liq talab etilayotgan xarajatlar miqdorini aniqlab, talab etiladigan xarajatlarning manbalari yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

ko‘p kvartirali uyning kadastr hujjatlarida uy-joy fondini unga tutash hududlari aks ettirilgan holda rasmiylashtirilishini tashkil qiladi;

hududlarni obodonlashtirish sohasidagi muammolarni o‘rganadi, ularni hududlar bo‘yicha bartaraf etish yuzasidan bo‘limga yuklatilgan vazifalarni bajaradi;

ko‘p kvartirali uylarni saqlash va undan foydalanish hamda kommunal servis xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ishlar bozorini rivojlantirish imkonini berishga oid ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar ijrosini ta’minlaydi;

joylardagi mahalliy hokimliklar, fuqarolarning o‘zini - o‘zi boshqarish organlari va boshqarish organlari bilan birgalikda ko‘p kvartirali uylarni kuz-qish davriga barqaror tayyorlashga oid manzilli dasturlarni shakllantiradi, shu jumladan uylarni mavsumiy ta’mirlash, obodonlashtirish va undan foydalanish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha dasturlar doirasida loyihadan avvalgi va loyiha hujjatlari uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqadi va uni mutasaddi idoralar tomonidan tasdiqlanishini tashkil qiladi. Mavsumiy ta’mirlash bo‘yicha dasturlar bo‘limga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylarni mavsumiy ta’mirlash bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, bu borada buyurtmachilar va loyiha tashkilotlari ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vaziflarni bajaradi;

hududni obodonlashtirish sohasidagi muammolarni o‘rganadi va umumlashtiradi hamda ularning natijalari bo‘yicha ushbu soha samaradorligini yanada oshirish, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, ushbu sohadaga oid bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yangilarini tashkil qilish bo‘yicha shahar miqyosidagi kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va ularni hududlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi;

boshqaruv organi tashkil etilmasdan foydalanishda bo‘lgan ko‘p kvartirali uylar yoki yangi qurilgan ko‘p kvartirali uylarda boshqaruv organlarini tashkil etilishini ta’minlaydi;

boshqaruv organlari tasarrufidagi ko‘p kvartirali uylarning erto‘lalari, noturar joylari va uyga tutash hududlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ruxsat etiladigan turlarini ishlab chiqish, ijaraga beriladigan uy-joy fondi qismlarini narxlar kalkulyaciyasini ishlab chiqish, tasdiqlash uchun mahalliy hokimliklarga taqdim etish;

uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini boshqarish borasida ko‘p kvartirali uylardan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlar bozorini rivojlantirish imkonini berishga oid ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar ijrosini bajarilishini ta’minlaydi;

hududda mavjud Boshqaruv organlari bo‘yicha barcha ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlarni “Mening uyim” billing tizimi bilan qamrab olish bilan bog‘liq ishlarni bajaradi, yangi qurilgan uy-joylarni e’tiborga olgan holda doimiy ravishda dasturga ma’lumotlarni kiritib borilishini ta’minlaydi;

ko‘p kvartirali uylar joy mulkdorlarining majburiy badallari yoki to‘lovlari miqdorini belgilashda xarajatlar tarkibini aniqlashni boshqaruv organlariga ko‘maklashadi;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish ob’ektlarini qurish hamda rekonstrukciya qilishga doir aniq yo‘naltirilgan dasturlarni ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini hududlarni rivojlantirish rejalari asosida shakllantirilishida qatnashadi;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish ob’ektlari qurilishi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi va monitoring qiladi;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish ob’ektlarini qurish bo‘yicha manzilli dasturlarni shakllantirishda takliflar ishlab chiqadi hamda muvofiqlashtiradi;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi loyihalarning ro‘yobga chiqarilishi monitoringini mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi;

davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida bajariladigan qurilish va rekonstrukciya ishlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishida ishtirok etadi;

ichimlik suvi ta’minoti tashkilotlari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yuritadi hamda suv ta’minoti tashkilotlari reestrini yuritish uchun boshqarmaga taqdim etadi;

Tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funkciyalarni ham amalga oshiradilar.

4-bob. Vazirlikning huquqlari va javobgarligi

9. Vazirlik o‘zlariga yuklangan vazifalar va funkciyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

a) shaharsozlik faoliyati sohasida:

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etishga doir ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun kiritish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga arxitektura va qurilishni rivojlantirish maqsadida zarur

sharoitlarni yaratishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida majburiy ko‘rib chiqish uchun taqdimnomalar kiritish;

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun shartnoma asosida tashkilotlarni, olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan, chet el olimlari va mutaxassislarini jalb etish;

obyektlar loyihalarini shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilik, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligini ko‘rib chiqadi, ularni kelishishda ijobiy yoki salbiy xulosalar beradi;

shaharsozlik faoliyati subyektlaridan shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga hamda shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishini talab qilish;

moliyalashtirilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshirilayotgan qurilish obyektlari bo‘yicha buyurtmachilar, loyihachilar va obyektlar qurilishi bo‘yicha pudratchilar tomonidan bajarilishini monitoringini olib borish;

o‘z faoliyatida shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiquvchilar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan o‘zaro ijodiy hamkorlikni amalga oshirish;

Vazirlikka shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarini buzgan holda ishlayotgan shaharsozlik faoliyati subyektlarining qurilish sohasidagi hamda arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini yaratish faoliyati huquqini beruvchi licenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turish bekor qilish to‘g‘risida takliflar kiritish;

olimlar, vazirliklar, idoralar, ta’lim va boshqa muassasalarning yuqori malakali mutaxassislarini ilmiy va ekspert ishlari, maslahatlar o‘tkazish uchun, arxitektura va qurilish sohasining dolzarb masalalarini ishlab chiqish uchun Vazirlik bilan kelishgan holda xorijiy mutaxassislarni taklif etish;

o‘z vakolatlari doirasida konferenciyalar, seminarlar, simpoziumlar, ko‘rgazmalar, yarmarkalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan shunday tadbirlarda ishtirok etish;

mintaqada arxitektura va qurilishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish maqsadida xalqaro, xorijiy va respublika tashkilotlari bilan hamkorlikni belgilangan tartibda yo‘lga qo‘yish.

b) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida:

korxona va tashkilotlardan o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha hujjatlar, statistika ma’lumotlar, tahliliy materiallar, xulosa va boshqa axborotlarni so‘rab oladi;

korxona va tashkilotlardan ichimlik suvi ta’minoti, oqova suvlarni chiqarib yuborish va issiqlik ta’minoti ob’ektlarini qurish, rekonstrukciya qilish, mukammal va joriy ta’mirlash, ko‘p kvartirali uy-joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash, ko‘p kvartirali uy-joy fondiga tutash hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur hisob-kitoblar, hisobot ma’lumotlari va boshqa materiallarni oladi;

korxona va tashkilotlarga hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga ko‘rib chiqilishi shart bo‘lgan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi qonunbuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalar yuboradi;

korxona va tashkilotlar rahbarlarini uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi qonunchilik talablarini va normativ hujjatlarni bajarmagani yoki tegishli ravishda bajarmagani uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortish to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritadi;

Vazirlik va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash choralarini ko‘radi;

Vazirlik tizimida budjet mablag‘laridan oqilona foydalanadi, Vazirlik tarkibiga kiradigan korxonalarining moliyaviy va tadbirkorlik faoliyatini tekshiradi va taftish qiladi.

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

10. Vazirlik:

tuman (shahar) hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda ularga yuklangan vazifalar va funkciyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalarining faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflarni sifatli tayyorlash;

tumanlar (shaharlar)da aniqlangan muammolarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sohani rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

sohani rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirish uchun javob beradi.

5-bob. Vazirning asosiy funkcional vazifalari

11. Quyidagilar Vazirning asosiy funkcional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstituciyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va ushbu nizomga rioya etish;

Vazirlik faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, ularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining buyruqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi qaror va farmoyishlari bilan yuklangan vazifalar va funkciyalar bajarilishini tashkil etish;

tarkibiy va hududiy bo‘linmalar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy choralarni ishlab chiqish va qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli karoriga muvofiq topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi uchun tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining hay’ati qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining buyruqlari va topshiriqlari va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

shaharsozlik va uy-joy kommunal sohasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha sektorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

o‘z o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarini taqsimlash, hududiy bo‘linmalarning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, Vazirlik hududiy bo‘linmalari faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;

Vazirlik hududiy bo‘linmalari faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, Vazirlik hududiy bo‘linmalari va o‘z o‘rinbosarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazorat qilinishini ta’minlash;

Vazirlik hududiy bo‘linmalarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududiy bo‘linmalarning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Vazirlik boshqaruv xodimlarining nomenklaturasiga kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, hududiy bo‘linmalarga ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalar xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimda qolishining maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirishga doir tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hududiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi «Korrupciyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘RQ-479-sonli Qonuni talablariga muvofiq tarkibiy bo‘linmalarda korrupciya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda hududiy bo‘linmalar ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish bo‘yicha takliflarni vazirning mutasaddilik qiladigan o‘rinbosarlariga kiritish;

tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish;

hududiy bo‘linmalar faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi, sifati va ulardan erkin foydalanishni oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ularni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining rahbariyatiga kiritish;

Vazirlikning tuman (shahar) bo‘limlari va hududiy bo‘linmalar tarkibiga kiradigan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar bilan belgilangan muddatlarda va tartibda aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan barcha murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

hududiy bo‘linmalar xodimlari lavozim maoshiga mukofotlar, ustamalar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni taqdirlash, rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi kiritish;

davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash.

Vazir vaqtincha bo‘lmaganida, uning vazifalarini bajarish o‘rinbosarlaridan biriga yuklatiladi.

5-bob. Vazirlikni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, xodimlar mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish

12. Vazirlikni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mahalliy budjet, budjetdan tashqari mablag'lar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Vazirlik xodimlarining ish haqi, lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haq, ustamalar, moddiy yordamlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi.

Vazirlik xodimlari lavozim maoshlariga har oylik ustamalar va rag'batlantirish tusida qo'shimcha to'lovlar Vazirlikning buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ravishda vazirlik buyrug'i bilan rag'batlantirish to'g'risida qo'shimcha to'lovlar ham berilishi mumkin.

6-bob. Vazirlikning O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga hisobot berishi

13. Vazir O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziriga vazirlik faoliyati to'g'risida muntazam ravishda hisobot beradi.

14. Tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari tegishlicha vazirlik va O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga hisobot beradi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

15. Vazirlikni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(Ш. Ятганов)